



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

ANTI-K DAVR VA UYG'ONISH DAVRI BADIY ASARLARIDA QAHRAMONLIK MAVZUSI EVOLYUTSIYASI

Xolmuradova Madina Abdimalik qizi
Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Dastlabki yozma manbalardan tortib zamonaviy nasr va poeziyagacha urush mavzusi yozuvchilarni doimiy ravishda o'ziga jalb etib kelgan. O'rta asrlarda urush diniy jihatdan yoritilgan bo'lsa, Uyg'onish davridan boshlab insoniy kechinmalar, ruhiy sinovlar, vatanparvarlik kabi tushunchalar ko'proq ko'tarila boshladi. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda urush tasviri, insoniyat tarixidagi qahramonliklar hamda ijodkorning bu vositalar orqali o'z maqsadini, g'oyasini ifoda etish mahorati xususidagi tahlillar keltirilgan. Antik davr va Uyg'onish davri insoniyat tarixidagi urush voqealari va ularni tasvirlashda yozuvchi mahorati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: urush, badiiy adabiyot, ijodkor mahorati, badiiy asar, qahramonlik eposi, memuar asar.

ЭВОЛЮЦИЯ ТЕМЫ ГЕРОИЗМА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АНТИЧНОГО ПЕРИОДА И ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ

Холмурадова Мадина Абдималик кизи
Каршинский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

От самых ранних письменных источников до современной прозы и поэзии тема войны всегда привлекала писателей. Если в Средние века война изображалась в религиозном контексте, то начиная с эпохи Возрождения, такие понятия, как человеческий опыт, духовные испытания и патриотизм, стали занимать более видное место. В данной статье представлен анализ изображения войны в художественной литературе, героических поступков в истории человечества и способности автора выразить свою цель и идею этими средствами. Анализируются военные события в истории человечества в античности и эпоху Возрождения, а также способность автора их изобразить.

Ключевые слова: война, художественная литература, творческое мастерство, произведение искусства, героический эпос, мемуары.

THE EVOLUTION OF THE THEME OF HEROISM IN LITERARY WORKS OF THE ANCIENT PERIOD AND THE RENAISSANCE

Xolmuradova Madina Abdimalik qizi
Karshi State University, Basic Doctoral Student

Abstract

From the earliest written sources to modern prose and poetry, the theme of war has always attracted writers. While in the Middle Ages war was covered in religious terms, from the Renaissance onwards concepts such as human experiences, spiritual trials, and patriotism began to be more prominent. This article presents an analysis of the depiction of war in fiction, heroic deeds in human history, and the author's ability to express his or her purpose and idea through these means. The war events in human history in antiquity and the Renaissance and the author's ability to depict them are analyzed.

Keywords: war, fiction, author's mastery, literary work, heroic epic, memoir.

Butun dunyo og'zaki va yozma adabiyotida urush mavzusi juda qadim zamonlardan beri mavjud. Bu mavzu deyarli badiiy adabiyot paydo bo'lgan davrlardan boshlab nafaqat yozuvchilar, balki butun xalq e'tiborida bo'lgan. U insoniyat tarixining ajralmas bir qismi hisoblangani uchun ham uning izlari adabiyotda chuqur aks etgan. Qadimgi Yunon adabiyotida Gomerning "Iliada" va "Odissey", Rim adabiyotida Vergiliyning "Eneyida", ilk ingliz epik dostonlaridan biri "Beovulf", hind eposi "Mahabharata", o'zbek adabiyotidagi "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarda urush mavzusining dastlabki ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularda katta urush va qahramonlik voqealari bayon qilinadi. Albatta, turkiy adabiyot xalq og'zaki ijodida – qo'shiq, afsona va maqollarda ham urush mavzusi uchraydi. Yuqorida sanab o'tilgan asarlarning barchasida urush asosiy motiv sifatida, ya'ni, jangovar sahnalar, Vatan himoyasi, yovuz kuchlarga qarshi kurash holatida ifodalangan eng dastlabki namunalar sirasiga kiradi. Bu asarlar dastlab madaniyat tarixini hamda mifologiyasini saqlab qolish uchun, shu bilan birga uni avloddan avlodga yetkazish uchun ham yaratilgan edi.

Qadimgi davr adabiyoti. Gomerning "Iliada" epik dostonida Troya urushi voqealari bayon qilinadi. "Odissey" asari bosh qahramoni Troya-yunon urushidagi yunon bahodirlaridan biri Itaka shohi Odisseydir. Mana uch ming yildirki, Odissey yunonlarning sevimli qahramoni. Lekin "Iliada"da asar ijodkorining butun mehri troyaliklar tomonida bo'lganidek, "Odissey"da bu ruh yanada bo'rtib ko'rinadi. "Odissey"ning turkiylarning antik qatlamga mansub asarlari bilan juda o'xshash tomonlari bor. Bunday yaqinlikni "Alpomish" va "Qo'rqut ota kitobi" eposlari misolida ko'ramiz. Asarda bosh qahramon Odisseyning vatani Itakaga, rafiqasi Penelopa yoniga qaytishdagi qiyinchiliklari, yovuz mahluqlar bilan kurashi, qahramonliklari hikoya qilinadi. Tadqiqotchilar "Odissey" dostonining yakuniy qismini "Alpomish" dostoni voqealariga qiyoslab, ikki doston bir-biriga yaqinligini aytishmoqda. Shubhasiz, ko'pgina xalq ijodi namunalarida o'xshash syujetlar juda ko'p. Negaki, dunyo xalqlarining orzu-niyatlari, ezgu o'ylari birbiriga hamohangdir. Jahondagi hamma xalqlar ham tenglik bo'lishini, mardlik, jasorat, yaxshilikni kuylaydi. Homer asarlari xalq og'zaki ijodiga asoslangan. Xalq dilidan kuylangan she'r barhayotdir. Gomerning "Iliada" va "Odissey" asarlari ta'sirida yaratilgan Vergiliyning "Eneyida" dostonida ham bosh qahramon Eneyning xalqi uchun yangi makon topishdagi sarguzashtlariga bag'ishlanadi. Doston ikki qismdan iborat. Dostonning ayrim boblari "Odissey"ga o'xshab ketsa-da, voqealar rivoji tubdan farq qiladi. Jumladan, Troya urushining so'nggi dahshatlari, yunonlarning makr-hiylalari, Appolon ibodatxonasining kohini Laokoonning o'g'illari bilan ulkan ilon tomonidan bo'g'ilishi, yog'och ot voqeasi, troyaliklar boshiga tushgan jabru-sitamlar "Iliada" dostoniga o'xshaydi. Eneyning tush ko'rish voqeasi, narigi dunyoni sayrisayohat qilishi voqeasi esa, "Odissey" voqeasiga o'xshab ketadi. Rivoyatlarga ko'ra, keyinchalik uning avlodidan Rim davlati vujudga keladi. Turli-tuman tarixiy ma'lumotlarga tayanib turib, O'rta Osiyoni eposlar beshigi deb nomlash mumkin. Eramizgacha bo'lgan V asrda yashagan Herodot o'zining "Tarix" kitobida To'maris bilan bog'liq voqealar tafsilotini keltirgan. Herodot bu afsonaning qisqacha bayonini keltirgan, xolos. Unda eramizdan oldingi oltinchi asrda Eron shohi Kirning massagetlar (masog'utlar) ustiga tajovuzi hamda To'maris boshchiligidagi turkiy qabilalarning Vatan uchun mardonavor kurashi aks etgan. To'maris bizga qadar yetib kelgan afsonalar orasidagi eng qadimgi ayol tasviridir. Atoqli olim Fozila Sulaymonova yunonlar To'maris deb atagan bu qahramonni Tumor deb nomladi. Bu fikrda jon bor. O'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub "Oysuluv" dostonida "To'maris"ning o'ziga xos aks-sadolari mavjud.

Urush mavzusi mavjud bo'lgan qadimgi asarlardan yana biri bu "Avesto"dir. "Avesto"ga ko'ra, olam ikki asosning, ikki ibtidoaning, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifodalovchi kuchlar yer ostida joylashgan, yer sathi esa

kurash maydonidir. Hayotdagi turfa o'zgarishlar qaysi kuchning g'alaba qilishiga bog'liq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa yaxshi va yomon xulqning o'zaro kurashidan iborat. "Biz hozirgi zamonda yurtimizning ming-ming yillik tarixini, tamomila yo'qolib ketgan ba'zi bir adabiy asarlarimiz ("To'maris", "Shiroq", "Zarina va Striangiya", "Zariadr va Odatida" dostonlari) izlarini antik zamonda o'tgan Yunon-Rim tarixchilari (Gerodot, Polien, Diodor, Xares) asarlarida topib olamiz", – degan edi o'zbek adabiyotshunos olimi N.M.Mallayev.

O'rta asrlar adabiyoti. Yevropa o'rta asrlar davri adabiyoti deyarli ming yillikni qamrab olgan bo'lib, V – XIV asrlarni o'z ichiga oladi. Rim imperiyasining qulashidan Uyg'onish davrigacha davom etadigan o'rta asrlar adabiyoti ilk: V – X asrlar va so'nggi: XI – XIV asrlar bosqichlarga bo'linadi. Bu davrda ham urush muhim mavzulardan biri hisoblangan. Masalan, "Roland haqida qo'shiq" (The Song of Roland) ritsarlar urushi haqida bo'lsa, "Arturning o'limi" asarida (Le Morte d'Arthur) qirol Artur va ritsarlar janglari tasvirlangan. O'rta asrlarda Ovrupa mamlakatlarida milliy adabiyotlar shakllandi, bu davrda ayniqsa, ritsarlik she'riyati va romanlari, shahar adabiyoti rivojlandi. Xalq-qahramonlik eposlari o'rta asrlar adabiyotining noyob namunalari sanaladi. "Beovulf" dostoni ilk o'rta asrlarda anglosaksonlar tomonidan yaratilgan bo'lsa, feodal munosabatlari shakllangan davrda Fransiya "Roland haqida qo'shiq", Germaniyada "Nibelunglar haqida qo'shiq", Ispaniyada "Sid haqida qo'shiq"lar yaratildi. Bu asarlarda davr muhiti o'z ifodasini topgan bo'lib, bo'lib o'tgan voqealar poetik shaklda, badiiylashtirilib berilgan. Odatda, qahramonlik eposi namunalari real voqealar badiiy to'qima bilan uyg'unlashib ketadi. "Mahabharata" sanskrit tilida yaratilgan qadimgi hind adabiyotining eng mashhur epik dostoni bo'lib, unda qarindosh bo'lgan ikki sulolalar o'rtasidagi hokimiyat va shon-shuhrat uchun kurash tasvirlanadi. Bu asar taxminan 100000 baytdan iborat bo'lib, qadimgi hind adabiyoti tamoyillariga xos tarzda to'plangan kosmogonik afsonalar, asotirlar, siyosiy huquqiy, diniy, she'riy-didaktik tarzidagi aytishuvlar, masallar, romanlar, aytishuvlar, hikoyalar majmuasidan iborat. Bu davr asarlarida urush ko'proq qahramonlik, jasorat va shon-shuhrat sifatida tasvirlangan.

Qadim anglo-sakson qabilalari hayotiga oid voqealar tarixidan hikoya qiluvchi ilk asar - "Beovulf" qahramonlik dostoni hisoblanadi. "Beovulf" dostoni ikki qismdan iborat. Dostonning debochasidagi voqealar anglo-saksonlarning qadimiy vatani bo'lgan Daniya tarixiga mansub bo'lib, qirol Skild Skefing va uning nabirasi qirol Xrot davrida sodir bo'lib o'tadi. Qirol Xrot o'zining zafarli yurishlaridan so'ng katta obro'-e'tibor qozonib, saroydagi bazm-u jamshidlar uchun hashamatli qasr qurdiradi. Qasrga "Xeorot" deb nom beradi va o'z risarlari bilan aysh-u ishratda yashaydi. Ammo bu xushnud kunlar uzoqqa cho'zilmaydi. Qirollik yerlarida paydo bo'lgan Grendel nomli bahaybat mahluq o'n ikki yil tajovuz qilib, Xrotning saralangan bahodir ritsarlarini nobud etadi. Bu shum voqeadan xabar topgan qo'shni gautlar qabilasi pahlavoni risar Beovulf Xrotga yordamga keladi. Beovulf yakkama-yakka olishuvda odamxo'r mahluq Grendel ustidan g'alaba qozonib, uni o'ldiradi. O'g'lining o'limidan xabar topgan Grendelning onasi yarim tunda paxlovon Beovulfga hujum qiladi. Olishuvda Beovulf Grendelning yovuz onasini ham o'ldiradi va Daniya mamlakatini ular tajovuzidan halos etadi. Shon-shuhratga ko'milgan bahodir Beovulf vataniga qaytib, gautlar yerida podsho bo'ladi.

"Roland haqida qo'shiq" dostoni ham qahramonlik eposi bo'lib, XI – XIV asrlarda yaratilgan ko'plab fransuz dostonlari orasida eng mashhuri sanaladi. Mualliflarining nomi saqlanib qolmagan. Ko'plab dostonlar qirol Buyuk Karl va uning ritsarlari amalga oshirgan ishlarga bag'ishlab yozilgan. "Roland haqida qo'shiq"da Karl va uning sodiq ritsari Roland haqida hikoya qilinadi. Bu doston taxminan 1100-yillarda yaratilgan bo'lib, unda Karlning Ispaniyaga qilgan yurishi madh qilinadi.

"Arturning o'limi" - bu 1485-yil atrofida nashr etilgan "ritsarlar asiri" sir Tomas Malori tomonidan yozilgan doston. "Arturning o'limi" (Le Morte d'Arthur) asari, asosan, qirol Artur va "aylana stol" ritsarlari hayoti haqidagi hikoyadir. Asar Artur Angliyasining shakllanishidan tortib,

uning fojiali halokatigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Hikoya davomida uning qirolligi tarixidagi muhim lahzalarni aks ettiruvchi turli xil rang-barang qahramonlar qahramonliklari tasvirlangan. Eposning boshida Uter Pendragon butun Angliya qiroli. U Tintagil gersogining rafiqasi Igrayinega ishtiyoqmand bo'ladi. Oxir-oqibat ular birgalikda Artur ismli farzand ko'rishadi, u surrogat oila tomonidan tarbiyalanadi va sehrgar Merlin tomonidan Oliy qirol bo'lish va qirollikni birlashtirish uchun bashorat qilinadi. Uterning o'limidan keyin tartibsizliklar boshlanadi va taxt yosh Artur toshdan qilichni tortib olguncha bo'sh qoladi, bu esa uni butun Angliya qiroli qiladi. Asardagi har bir kitob ma'lum bir vaziyat yoki qahramonga qaratilgan. Misol uchun, I kitob Arturning tug'ilishi va uning hokimiyat tepasiga kelishini bashorat qiladi. Unda shuningdek, quyidagilar batafsil bayon etilgan: Artur dushmanlariga qarshi olib borgan muvaffaqiyatli yurishlar; uning fransuz qirollari Ban va Bors bilan ittifoqi; Arturning qirollikni yo'q qilishga mahkum bo'lgan incest o'g'li Mordredni o'ldirishga urinishi va "aylana stol"ning yuksalishi va qulashini bashorat qiluvchi Merlinning bashoratlari. Ko'rinib turibdiki, bu asar mazmuni ham qahramonlik va janglar, o'zaro kurashlar asosiga qurilgan.

Uyg'onish davri adabiyoti. Uyg'onish davri adabiyoti G'arb va Sharq adabiyotida turli xil davrlarda ko'zga tashlanadi. XIV asrning o'rtalarida Italiyada, XV asrning ikkinchi yarmida Fransiya, Angliya, Ispaniya, Germaniya va Niderlandiyada katta iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar yuz berdi. Yevropaning turli mamlakatlarida yuz bergan bu jarayonni italyanlar – Kvinkvechento, fransuzlar – Renessans, nemislar – Reformatsiya, umuman olganda Uyg'onish deb ataganlar. O'rta asrlar feodalizmi sharoitida shakllana boshlagan kapitalistik munosabatlar G'arbiy Yevropada Renessans (Uyg'onish) harakatining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Madaniyat tarixida Renessans nomi bilan yuritiladigan ushbu harakat dastlab Italiyada (XIV) va keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham yuzaga keladi. N.I.Konrad Sharq uyg'onish davri chegaralarini IX-XIII asrlar, V.M.Jirmunskiy XV asr deb belgilaydi. V.Abdullayev va B.Valixojayevlar esa X-XV asrlarni nazarda tutadilar. A.Rahimov IX-XVI asrni Uyg'onish davri deb olishni ma'qul ko'radi.

Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bu davrda gumanistik adabiyotning rivoj topdi va u realistik mazmun kasb etdi. Gumanistlar oldilar. Antik adabiyotning tenglik va adolat uchun kurash g'oyalaridan ta'sirlanish F.Rablening "Gargantua va Pantagryul", M.Servantesning "Don Kixot", V.Shekspir va K.Marloning tragediyalarida yaqqol gavdalanadi.

"Don Kixot" romanining muallifi Migel de Servantes Saavedra Ispaniyaning Alkala de Enares shahrida tug'ilgan. U Antik klassik va Uyg'onish davri adabiyoti bilan yaqindan tanishdi, harbiy xizmat va urushlarda qatnashdi, Jazoiridagi besh yillik tutqunlikda bo'ldi hamda ko'p muhtojlik va mashaqqatlarni boshdan kechirdi. Bu holatlardan ta'sirlangani Servantesning "Don Kixot" asarida yorqin ifodalangan. "Don Kixot" romanining yaratilishi ispan madaniy hayotida juda katta voqea bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, "Don Kixot" yozilgan paytda ham, undan avvalgi 5 – 6 asr mobaynida ham Ovrupa adabiyotida ritsarlar hayotiga bag'ishlangan roman, dostonlar mashhur edi. Xalq orasida ritsarlar hayotiga qiziqish, jangovar qahramonliklarga, jasoratga to'la hayotga intilish kuchli edi."

Sharq va G'arb an'analari qadimgi va Uyg'onish davri adabiyotining qiyosiy tahlili urush, qahramonlik va insoniy qadriyatlarning tematik tasvirida sezilarli o'xshashlik va farqlarni ochib beradi. Bu davrlardagi adabiy asarlar nafaqat tarixiy voqelikni aks ettiradi, balki ularning tegishli tsivilizatsiyalarining madaniy, falsafiy va mafkuraviy nuqtai nazarini ham namoyish etadi.

Qadimgi G'arb adabiyotida urush ko'pincha insoniyat hayotining muqarrar elementi va qahramonlikning markazi sifatida tasvirlangan. Gomerining "Iliada"si kabi mumtoz asarlar urushni ham qahramonlik, ham fojiali hodisa sifatida tasvirlaydi. Troya urushi haqidagi hikoya jasorat, sharaf va shaxsiy shon-sharafga urg'u beradi, shu bilan birga mojarolarning halokatli oqibatlarini ham ochib beradi. Axilles kabi qahramonlar jangchi idealini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu yerda shaxsiy obro' va jang maydonidagi jasorat eng yuqori fazilatlar hisoblanadi. Shu nuqtai

nazardan, urush individual kuch, sadoqat va taqdirni namoyish etish bosqichiga aylanadi.

Xuddi shunday, Rim adabiyoti bu qahramonlik an'anasini, ayniqsa Vergeliy tomonidan yozilgan "Eneyida"si davom ettiradi. Ushbu dostonda urush Rimga asos solinishi afsonasi bilan bog'liq bo'lib, mojaroni kuchli sivilizatsiya yaratishda zaruriy qadam sifatida tasvirlaydi. Yunon dostonlarining sof qahramonlik nuqtai nazaridan farqli o'laroq, Rim adabiyoti davlat va jamoaviy taqdir oldidagi burchga urg'u beradi. Shuning uchun ham urush nafaqat shaxsiy kurash sifatida, balki tarixiy va siyosiy zarurat sifatida ham taqdim etiladi.

Aksincha, qadimgi Sharq adabiyoti urushning kengroq falsafiy talqinini namoyish etadi. Epik va diniy matnlar ko'pincha qahramonlik rivoyatlarini axloqiy va ma'naviy mulohazalar bilan birlashtiradi. Masalan, hind dostoni "Mahabharata" urushning keng tavsiflarini, xususan, Kurukshetraning buyuk jangini o'z ichiga oladi. Biroq, mojaro faqat qahramonona to'qnashuv sifatida tasvirlanmaydi. Buning o'rniga, u axloqiy dilemmalar, axloqiy mas'uliyat va burch (dharma) tushunchasini o'rganadi. Qahramonlar adolat, sadoqat va zo'ravonlik oqibatlarini haqidagi ichki mojarolarga duch kelishadi. Bu falsafiy o'lchov Sharq epik an'analari ko'plab G'arb rivoyatlaridan ajratib turadi.

Shunga o'xshash holatni fors adabiyotida, ayniqsa, Firdavsiy yozgan "Shohnoma"da kuzatish mumkin. Ushbu monumental doston Forsning afsonaviy tarixini qahramonona janglar va qirolik kurashlari orqali hikoya qiladi. Biroq, jasorat va harbiy kuch tasviri bilan bir qatorda, matnda adolat, donolik va axloqiy yetakchilik ham ta'kidlangan. Qahramon Rustam nafaqat jangchi, balki axloqiy mas'uliyat va millatga sadoqat ramzi hamdir. Shunday qilib, Sharq dostonlaridagi urush ko'pincha axloqiy saboqlar va inson xatti-harakatlari haqidagi mulohazalar bilan bog'liq.

Uyg'onish davri G'arb madaniyatlarida urushning adabiy tasvirida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Uyg'onish davri gumanizmi diqqatni sof qahramonlik ideallaridan inson tabiati va siyosiy kuchning murakkabroq tasvirlariga o'tkazdi. Shekspirning dramatik asarlari bu o'zgarishni yorqin tasvirlaydi. "Genrix V" pyesasida qiroli o'z askarlarini ilhomlantiradigan kuchli yetakchi sifatida namoyon bo'ladi, ammo pyesada mas'uliyat, fidoyilik va harbiy yurishlarning insoniy oqibatlarini haqida ham so'z boradi.

Uyg'onish davri G'arb adabiyotining yana bir muhim jihati urushga tanqidiy va satirik nuqtai nazarlarning paydo bo'lishidir. Migel de Servantesning "Don Kixot" romani ritsarlik urushining an'anaviy g'oyalariga qarshi chiqadi. Muallif istehzo va hazil orqali qahramonona jang haqidagi eskirgan tushunchalarni tanqid qiladi va romantiklashtirilgan urushning bema'niligini fosh qiladi. Bu o'zgarish Uyg'onish davrida kengroq intellektual o'zgarishni ko'rsatadi, bu yerda adabiyot o'rnatilgan ijtimoiy va madaniy afsonalarni shubha ostiga qo'ya boshladi.

Shu bilan birga, Sharq adabiyotida Uyg'onish davri taraqqiyoti biroz boshqacha yo'nalishda davom etdi. Qahramonlik an'analari ta'sirchan bo'lib qolgan bo'lsa-da, adabiy asarlar tobora ko'proq tarixiy mulohaza va siyosiy sharhlarni o'z ichiga olgan. Masalan, Markaziy Osiyo adabiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan "Boburnoma" memuarida harbiy yurishlar va siyosiy kurashlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Sof epik rivoyatlardan farqli o'laroq, ushbu avtobiografik matn shaxsiy tajribani tarixiy hujjatlar bilan birlashtiradi. Urush nafaqat qahramonona harakat sifatida, balki strategiya, yetakchilik va madaniy o'zaro ta'sirni o'z ichiga olgan murakkab siyosiy jarayon sifatida ham tasvirlangan.

Bundan tashqari, Sharq adabiy an'analari mojaroning axloqiy va ma'naviy jihatlarini ta'kidlashda davom etdi. Falsafiy va diniy g'oyalar ta'sirida ko'plab asarlar urushni shunchaki harbiy kuchning namoyishi emas, balki axloqiy qadriyatlar sinovi sifatida tasvirlaydi. Bu nuqtai nazar uyg'unlik, adolat va ichki muvozanatni ustuvor deb biladigan kengroq madaniy munosabatlarni aks ettiradi.

Bu farqlarga qaramay, ikkala davrning Sharq va G'arb adabiy an'analari o'rtasida bir nechta umumiy elementlarni aniqlash mumkin. Birinchidan, urush ko'pincha jasorat, sadoqat,

fidoyilik va yetakchilik kabi asosiy insoniy fazilatlarni o'rganish uchun rivoyat doirasi vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, urushning adabiy tasvirlari ko'pincha ular yaratilgan jamiyatlarning siyosiy va madaniy voqeliklarini aks ettiradi. Nihoyat, ikkala an'ana ham asta-sekin sof qahramonona tasvirlardan mojarolarni yanada tanqidiy va aks ettiruvchi talqinlarga o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, Antik davr va Uyg'onish davri adabiyotlarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, urush tasviri madaniy qadriyatlar, falsafiy g'oyalar va tarixiy kontekstlar tomonidan chuqur ta'sirlangan. G'arb klassik adabiyoti individual qahramonlik va harbiy shon-sharafga urg'u berishga moyil, Sharq an'analari esa ko'pincha axloqiy va ma'naviy mulohazalarni birlashtiradi. Uyg'onish davrida G'arb adabiyoti tobora ko'proq an'anaviy qahramonlik ideallarini shubha ostiga qo'ymoqda, Sharq adabiyoti esa tarixiy rivoyatni axloqiy mulohaza bilan birlashtiradi. Bu o'xshashliklar va farqlar global adabiy an'analarning boyligi va xilma-xilligini ta'kidlaydi va turli madaniyatlar urush, kuch va insoniy mas'uliyatni qanday tushunishi haqida qimmatli tushunchalar beradi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азизов К., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
2. Алимухамедов А. Антик адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
3. Boynazarov F. Jahon adabiyoti (0 'quv qo'llanma). Toshkent: Musiq, 2006.
4. European literature and the Latin Middle Ages. Ernst Robert Curtius 2013, Princeton University Press.
5. Hamdamov U. Qosimov A. Jahon adabiyoti. Toshkent. Akademnashr: 2024.
6. Кун Н. Қадимги юнон афсона ва ривоятлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013.
7. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, 1963.
8. Qo'ziyev U. O'zbek adabiyoti tarixi (uslubiy qo'llanma). – Namangan: 2016.
9. Раҳимов А. Шарқда уйғониш ҳаракати // ЎТА, №5,1991.
10. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: Фан, 1997
11. The History of Ancient Greek literature. Gilbert Murray. 2008. D.Appleton and company.
12. Холбеков М.Н. Инглиз адабиёти классиклари. Биобиблиографик қўлланма. - Жиззах: ЖДПИ, 2014.